



Raqamli Iqtisodiyot

Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li

Oliy va amaliy matematika kafedrasining o'qituvchisi

Toshkent Moliya instituti

E-mail: dilshodostonaqulov0@gmail.com

ORCID: 0009-0000-6489-630X

Annotatsiya: Bugungi kunda aksariyat rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni yaratish va uni yanada rivojlantirish paradigmaları sezilarli darajada farqlanadi. Jahon iqtisodiyotida raqamli iqtisodiy tizim iqtisodiyotning ajralmas qismi sifatida mamlakat tomonidan muntazam ravishda qo'llab-quvvatlanadi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotda innovatsiyalar ulushini oshirish, raqobatbardosh sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish va davlat xizmatlari sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Demak, xorijiy davlatlar iqtisodiyotining turli tarmoqlarida raqamli tizimlarni joriy etishni o'rganish O'zbekiston iqtisodiyotida dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish yuqori bo'lgan mamlakatlarning raqamli iqtisodiyotdagi tendensiyalari keltirilgan.

Kalitli so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli tizim, innovatsiya, xorijiy tajriba, sanoat inqilobi, strategiya.

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА

Остонақулов Дилшод Исмати́лла ўғли

Преподаватель кафедры высшего и прикладного математики

Ташкентский финансовый институт

E-mail: dilshodostonaqulov0@gmail.com

ORCID: 0009-0000-6489-630X

Аннотация

Сегодня парадигмы для создания и дальнейшего развития цифровой экономики в большинстве развитых стран различны. В мировой экономике цифровая экономическая система регулярно поддерживается страной как неотъемлемая часть экономики. Цифровая экономика в Узбекистане является важным фактором в увеличении доли инноваций в ВВП, производстве конкурентоспособных качественных продуктов и качества общественных услуг. Это означает, что изучение цифровых систем в различных секторах иностранной экономики имеет отношение к экономике Узбекистана. Эта статья содержит тенденции в цифровой экономике стран с высокой числовой нулем в мировой экономике.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровая система, инновации, иностранная опыт, промышленная революция, стратегия.



Digital Economy

Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li

Teacher of the Department of

Higher and Applied Mathematics

Tashkent Institute of Finance

E-mail: dilshodostonaqulov0@gmail.com

ORCID: 0009-0000-6489-630X

Abstract

Today, the paradigms for the creation and further development of a digital economy in most developed countries is different. In the world economy, the digital economic system is regularly supported by the country as an integral part of the economy. The digital economy in Uzbekistan is an important factor in increasing the share of innovations in GDP, production of competitive quality products and quality of public services. This means that the study of digital systems in various sectors of the foreign economy is relevant in the economy of Uzbekistan. This article contains trends in the digital economies of countries with high numbering in the world economy.

Keywords: Digital economy, digital system, innovation, foreign experience, industrial revolution, strategy.

Kirish

Iqtisodiyot va texnologik rivojlanishning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyatning hayotini shiddat bilan o'zgartirib keng imkoniyatlar yaratish bilan birgalikda, xalqaro raqobat maydonida yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi. Buni biz, COVID-19 davrida butun jahonda foydalanilgan raqamli platformalar, biznes modellar, ta'lim platformalari va boshqalarda bevosita guvohi ham bo'ldik. Raqamli iqtisodiyot turlicha qarashlarda turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Birinchidan, "raqamli iqtisodiyot bu – noldan yaratilishi lozim bo'lgan boshqacha bir iqtisodiyot emas, bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish, ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga o'tkazish demakdir" [1]. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborotlarning ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Uchinchidan, raqamli iqtisodiyot bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish obyekti axborotlashgan jamiyatdir. Shu o'rinda alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimiz rahbari tomonidan 2022-yil 14-aprelda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida "ikki oy muddatda xorijlik mutaxassislarni jalb qilgan holda amaliy loyihalar orqali ming nafar yoshning IT parklarda malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish, yil boshidan xorijdan kelgan uch mingga yaqin mutaxassislari imkoniyatidan foydalanish" topshiriqlari berildi. Bu bejizga emas, ya'ni biz bugungi kunda ushbu sohani rivojlantirish yo'lida ekanmiz, albatta xorijiy tajriba juda ham muhim sanaladi. Shunday ekan raqamli iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar tomonidan ushbu yo'nalish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va



keraklilarini respublikamiz tarmoq va sohalariga joriy etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi


Raqamli iqtisodiyotga ta'rif, uni rivojlantirish, barcha texnologiyalarini iqtisodiyotning tarmoq va sohalariga samarali joriy, ushbu yo'nalishda kadrlar tayyorlash kabi yo'nalishlarda bugungi kunga qadar qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Massachuset universiteti professori Nikolas Negroponte "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasini 1990-yillarda ixtiro qilgan. Shundan so'ng ko'p iqtisodchilar bu tushunchaga turli xil ta'riflar berishgan [2]. Tadqiqotchi D.Jo'rayeva tomonidan raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni quyidagicha bayon etilgan: "Dunyodagi nufuzli tashkilotlar tomonidan olib borilgan tahlillar natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot YAIMni kamida 30 foizga o'stirish, shuning barobarida, xufiyona iqtisodiyotga barham berish hamda korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini berar ekan. Ko'rinib turibdiki, mazkur soha yurtimizda barcha soha va tarmoqning yuksak rivojiga jiddiy turtki bo'ladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joiz, raqamli iqtisodiyot korrupsiya va "yashirin iqtisodiyot"ning asosiy kushandasidir. Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasida yangi yo'nalishlar ochib beradi" [3]. Tadqiqotchilar P.Xashimov, Z.Faxriddinova tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning imkoniyatlari, afzalliklari hamda kamchiliklariga ta'rif berilgan bo'lib, ushbu sohaning dunyoni rivojlangan mamlakatlari miqyosida tarixiy rivojlanish bosqichlari o'rganilgan. Shuningdek, ular tomonidan O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi tahlil qilingan hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida bu sohani yanada rivojlantirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari bayon qilingan [4]. Raqamli iqtisodiyotning ilmiy-uslubiy jihatlari, uning shakllari va omillari ta'siri M. Kastels (Kastels M. 2004), B.N. Panshin (Panshin B. 2016), A.I. Sokolov (Sokolov. I. 2018), A.A.Kunsmann (Kunsmann A. 2016) va boshqa ko'plab xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan. Kastelsning so'zlariga ko'ra, raqamli iqtisodiyot axborot iqtisodiyotining ikkinchi bosqichi bo'lib, uning ta'rifi 2016 yildan beri Jahon bankining raqamli iqtisodiyot ta'rifi sifatida qo'llaniladi. Ta'rif quyidagicha: "Raqamli iqtisodiyot - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimi" va "Raqamli iqtisodiyot – jadal iqtisodiy rivojlanishning yangi paradigmasi" degan xulosaga keladi [5]. M.L. Kalujskiyning fikricha: "Raqamli iqtisodiyot - bu internetdagi iqtisodiy faoliyatning aloqa muhiti, shuningdek, shakllari, usullari, vositalari va natijalaridir". Tomas Mezenburg tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, raqamli iqtisodiyot konsepsiyasining uchta asosiy komponenti mavjud:

- infratuzilmani qo'llab-quvvatlash;
- elektron biznes;
- elektron tijorat.

B.N. Panshinning ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiyot tarmoq xizmatlariga asoslangan. Shu bilan birga, u raqamli iqtisodiyot elementlarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan sohalarga ishora qiladi: "Iqtisodiyotning raqamli segmenti kengayishining asosiy sababi – rivojlangan mamlakatlarda milliy YAIM 70 foizdan ortig'ini tashkil yetuvchi tranzaksiya sektorining o'sishi. Bu sektorga quyidagilar kiradi: davlat boshqaruvi, konsalting va axborot xizmatlari, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, turli kommunal, shaxsiy va ijtimoiy



xizmatlar ko'rsatish» [6]. Aleksandr Kunsman raqamli iqtisodiyotni "moddiy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda resurslarni aniqlash, shuningdek, saqlash, qayta ishlash va axborotni uzatish uchun raqamli texnologiyalardan faol foydalanish sifatida axborot va bilimlarning ustuvor roli bilan tavsiflangan zamonaviy iqtisodiyot turi" deb ta'riflaydi [7]. Rivojlangan mamlakatlarda raqamli tizimlar xalq xo'jaligining turli soha va tarmoqlarida keng qo'llanilganligi sababli bu mavzu iqtisodchi olimlar, texnologlar, axborot-kommunikatsiya sohasi mutaxassisi bo'lgan olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Shuning uchun ham ushbu mavzu bo'yicha son-sanoqsiz nashrlar va ilmiy maqolalar mavjud. Demak, yuqoridagi tahlillarga asoslanadigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyotni har bir soha va tarmoqqa xorijiy tajribani o'rganish asosida joriy qilish Deyarli barcha insonlar raqamli iqtisodiyot deganda, faqatgina Blockchain texnologiyasini va ulardan xalqaro moliya bozorlarida foydalanish masalalari, kriptovalyutalarni tushunishadi. Albatta, Blockchain texnologiyasi, kriptovalyutalar ham raqamli iqtisodiyotning bir bo'lami, ammo "Raqamli iqtisodiyot" deganda, raqamli kommunikatsiyalar, AT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi. Bunda, yashirin iqtisodiyotga barham berish vositasi sifatida ham qarash mumkin. Chunki birinchidan, barcha operatsiyalar elektron ro'yxatdan o'tilishiga, ikkinchidan shaffof bo'lishiga erishiladi. Qolaversa, ishlab chiqarishda yangi axborot texnologiyalar qo'llanilishi tufayli mahsulot va xizmatlarning tannarxi pasayadi. To'rtinchi sanoat inqilobi (Sanoat 4.0) – bu buyumlar va xizmatlarni global sanoat tarmog'iga qo'shilish istiqboli bilan bir korxonaga chegarasidan tashqariga chiqadigan, tashqi muhit bilan doimiy o'zaro ta'sirda real vaqt rejimida intellektual tizimlar tomonidan boshqariladigan to'liq avtomatlashtirilgan raqamli ishlab chiqarishdir. Sanoat 4.0 komponentlariga quyidagilar kiradi: buyumlar interneti elementlari; sun'iy intellekt va robototexnika; bulutli hisoblash; Big Data; qo'shimchalar ishlab chiqarish; kibernetika; integratsiya tizimi; modellashtirish; kengaytirilgan haqiqat. Ushbu elementlarning ko'pchiligi amaliyotda uzoq vaqt davomida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda, ammo aynan ularning yagona yaxlit tizimga birlashishi "Sanoat 4.0" konsepsiyasini ishlab chiqish va ishlab chiqarish samaradorligining yangi darajasini va qo'shimcha daromadlarni ta'minlash, raqamli texnologiyalardan foydalanish, yetkazib beruvchilar va hamkorlar tarmog'ini shakllantirish, shuningdek, innovatsion biznes modellarini joriy etish imkonini beradi. Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, intellektual faoliyat natijalarini himoya qilishga qaratilgan Jahon iqtisodiy forumining Global raqobatbardoshlik indeksida [8] va Global innovatsiya indeksida O'zbekistonning o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari, mamlakat yalpi ichki mahsuloti sifatida axborot kommunikatsiya texnologiyalari sektorining ulushini oshirish, bularning barchasi yuqori darajadagi xavfsizlikka ega raqamli tizimni yaratishni taqozo etadi [9]. Global raqamli tizimlarni rivojlantirishda, birinchi navbatda, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari zarur axborot tizimlari va resurslarini, dasturiy ta'minot va elektron xizmatlarni joriy etgan holda raqamli iqtisodiyotni, axborot texnologiyalari bozorini, shu jumladan texnologiyani yo'lga qo'yish orqali davlat-xususiy sheriklik asosidagi istirohat bog'lari va kovorking markazlari, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasi, telekommunikatsiya texnologiyalari va tarmoqlarini rivojlantirish, ilg'or telekommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirishni muvofiqlashtirish, aholiga elektron xizmatlarni joriy etish orqali raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish, ma'muriyat va iqtisodiyot, elektron tijorat va dasturiy



ta'minot bozorini rivojlantirish - texnik-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shahar va tumanlar infratuzilmasini boshqarish, xususan, uy-joy kommunal xo'jaligi, transport logistikasi, xavfsiz va "aqlli shahar" uchun "aqlli" tizimlarni ishlab chiqish, malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [10]. Xorijiy davlatlarning iqtisodiy raqamlashtirish strategiyasini keng o'rganish orqali O'zbekiston iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasini hisoblash ko'rsatkichlari va usullari tarmog'ini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Raqamli iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan raqamli mamlakatlar tajribasiga asoslanib, to'rt turdagi vositalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- "Raqamli ishlab chiqarish" resurslarini modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini

oshirish uchun joriy iqtisodiy tizimning samarasiz zonalarini bartaraf etish. Vazifalar eng qiziquvchan va qobiliyatli o'yinchilar yordamida hal qilinadi;

- "Raqamli sakrash" uchun shart-sharoitlar yaratilishi – biznesning yangi rivojlanishi va zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi tufayli katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt,

neyron tarmoqlar, blok zanjiri vujudga keladi.

- "Raqamlashtirish" davlat bilan hamkorlikning barcha jarayonlari samaradorligi va shaffofligini oshiradi, mamlakatda biznes faoliyatini osonlashtiradi, bu esa iqtisodiyotga keng

ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- "Raqamli qayta investitsiyalar". Dastlabki uchta vazifani bajarish natijasida qo'shilgan qiymat, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi va sohalararo sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro elektraloqa ittifoqi tomonidan xalqaro miqyosda qabul qilingan AKT ko'rsatkichlari asosida nashr etilgan indeks. Bu axborot jamiyatini o'lchash uchun eng muhim ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun muhim vositadir. Xususan, Yevropa Ittifoqining ushbu indeksdagi o'rni tahlil qilinsa, 2015-yilda butun Yevropa Ittifoqi Raqamli iqtisodiyot va jamiyat indeksi bo'yicha 0,47 ball to'plaganini ko'rish mumkin. Indeks quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha tahlil qilinadi:

- ulanish;

- inson kapitali;

- fuqarolarning internet xizmatlaridan foydalanishi;

- raqamli texnologiyalar va tadbirkorlik subyektlarining integratsiyasi;

- raqamli davlat xizmatlari;

- AKT tadqiqotlari va ishlanmalari.


Yevropa Ittifoqi so'nggi yillarda barcha toifadagi Raqamli Iqtisodiyot va Jamiyat indekslarini yaxshilagan bo'lsa-da, u aloqa guruhida eng yuqori ko'rsatkichi 0,51 dan 0,55 gacha tashkil qildi. Bu, asosan, mobil aloqa qamrovining 58 dan 67 gacha kengayishi va yuqori tezlikdagi internet qamrovi ulushi 18% dan 22% oshgani hisobiga sodir bo'ldi. Yevropa Ittifoqi aholisining raqamli xabardorlik darajasi ham 55% dan 59% oshdi, biroq aholini raqamli



iqtisodiyotdan samarali foydalanish uchun zarur ko'nikmalar bilan ta'minlash bo'yicha hali ko'p ishlar qilinishi kerak. Buni quyidagicha ko'rish mumkin:

- Yevropadagi uylarning 76% keng polosali internetga ega (kamida 30 Mbit/s);
- Mobil 2013 yilda mobil Internetga ulanish 100 kishiga 58 abonentdan oshdi - 4G mobil xizmatlari Yevropa Ittifoqi aholisining 84% qamrab oldi;
- AKT mutaxassislari umumiy ishchi kuchi 3,5%;
- Yevropaliklarning 44% hali pochta qutilaridan foydalanish, tahrirlash vositalari yoki yangi qurilmalarni o'rnatish kabi asosiy raqamli ko'nikmalarga ega emas;
- Yevropaliklarning 79% kamida haftasiga bir marta Internetdan foydalanadi. 2017-yilda o'sish 2016-yilga nisbatan 3% tashkil etdi;
- Internetdan foydalanuvchilarning 78% musiqa tinglaydi, kino tomosha qiladi va o'yin o'ynaydi;
- Yevropa internet foydalanuvchilarining 70% onlayn yangiliklarni o'qiydi;
- 63% ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi;
- 66% onlayn trafikni sotib oladi;
- 59% onlayn-bankingdan foydalanadi;
- 39% qo'ng'iroq qilish uchun internetdan foydalanadi;
- Yevropa bizneslarining 18% elektron hisob-fakturalar tashkil etadi;
- Internet foydalanuvchilarining 34% qog'oz nusxalarisiz onlayn tarzda to'ldirgan (Information Policy We, 2017) [11].


Yevropa Komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, hozirda biznesning 41% raqamli texnologiyalardan foydalanmaydi va kompaniyalarning atigi 2% o'z afzalliklarini to'liq anglab yetadi. Shuning uchun Yevropa bizneslari biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratishga, "raqamli" biznes landshaftini tezlashtirishga, jarayonlarni yaxshilash uchun yangi raqamli texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirishga, yangi biznes modellarini yaratishga, biznes tahlilini chuqurlashtirishga, o'sish sur'atlarini oshirishga va ish o'rinlarini yaratishga harakat qilmoqda. Oxirgi vazifa yoshlarning ishsizlik darajasining yuqoriligi bilan bog'liq, ayniqsa Yevropa Ittifoqida 20%, Ispaniya va Gretsiyada esa 55% dan ortiq. Shvetsiya, Finlyandiya, Niderlandiya va Daniya yetakchi raqamli iqtisodiyotga ega, undan keyin Luksemburg, Irlandiya, Buyuk Britaniya, Belgiya va Estoniya. Ruminiya, Gretsiya va Italiya indeksdagi eng past mamlakatlardir. 2017 yilda barcha a'zo davlatlar indeks tuzilmasida yaxshilandi. Irlandiya va Ispaniyada eng yuqori darajaga erishildi. Boshqa tomondan, Daniya va Portugaliyada biroz o'sish kuzatildi [12]. Raqobatbardoshlik, tadbirkorlik va innovatsiyalarni oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurligi "Biznes 2020" Harakat rejasida ta'kidlangan. Yevropa Komissiyasi raqamli inqilob tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi, mavjud korxonalarining innovatsion transformatsiyasini rag'batlantiradi va Yevropada raqamli biznesni targ'ib qiladi. "Biznes 2020" Harakat rejasi 2020-yilgacha bo'lgan davr uchun siyosat va asosiy ustuvor yo'nalishlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Dastur beshta toifaga bo'lingan bo'lib, ularning har biri raqamli tadbirkorlikka ta'sir etuvchi asosiy omillarni tavsiflaydi. Yevropa Ittifoqida Fransiya raqamlashtirish sohasida yetakchilardan biri hisoblanadi. Fransiyada infratuzilmaning yuqori sifati va standarti uzoq vaqtdan beri an'anaga aylangan: yo'llar, suv quvurlari, kommunal xizmatlar va hatto mashinalar joylari. Shu bilan birga, davlat o'z yutuqlarida to'xtab qolmadi va raqamli



iqtisodiyotni takomillashtirish mamlakat strategiyasining muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Bundan tashqari, butun mamlakat bo‘ylab axborot xavfsizligini rivojlantirish, biznes yoki raqamli mahsulotlardan shaxsiy foydalanishni yodda tutish juda muhimdir. Hozirgi kunda Fransiya “Cisco Systems, Inc.” bilan faol hamkorlik qilmoqda. Kompaniya Fransiyaning iqtisodiy o‘rishini tezlashtirishga, uning raqobatbardoshligini va bandligini oshirishga yordam beradi. “Cisco Systems, Inc.” — yirik kompaniyalar va telekommunikatsiya kompaniyalari uchun tarmoq uskunalari ishlab chiqadigan va sotuvchi Amerika transmilliy kompaniyasi. Bu yuqori texnologiyalarga ixtisoslashgan dunyodagi eng yirik kompaniyalardan biri. Cisco Systems maslahatchilari Fransiya raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni jadallashtirish, mamlakat taraqqiyotini rag‘batlantirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini yaratishda yordam beradi. Shu maqsadda Cisco hukumatga ta‘lim va axborot xavfsizligi, infratuzilmani rivojlantirish va butun mamlakat bo‘ylab aqlli shaharlar va boshqa sohalarida innovatsiyalarni targ‘ib qilishda yordam bermoqda. “Cisco Systems, Inc.” Tarmoq Akademiyasi fransuz tadbirkorlari mamlakatni raqamlashtirishda ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari uchun kelajakda 200000 kishigacha muhim texnologiyalar bo‘yicha o‘quv dasturlarini taqdim etadi. Bundan tashqari, dasturlarni ishlab chiqishda yordam berish uchun innovatsion markazlar tashkil etilmoqda. Raqamli texnologiyalardan kengroq foydalanishga o‘tish Fransiya bandlikni oshirish, ta‘lim, axborot xavfsizligi, innovatsiyalar va biznesni rag‘batlantirish orqali mamlakatning global raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, yalpi ichki mahsulotning 1-2% o‘rishini ta‘minlaydi [13, 14]. Yuqorida tahlil qilingan mamlakatlar raqamli, tijorat va yetakchilik sohalarida salohiyatni oshirish uchun barcha mavjud imkoniyatlardan foydalanishga intilmoqda. Bundan tashqari, ularning har biri raqamlashtirish tarixiga bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos farqlarga ega. Ushbu mamlakatlarda raqamli sektorni rivojlantirish uchun chuqur tadqiqotlar va ijodkorlik qobiliyatlari raqobatbardosh ustunlikka aylandi. Bu davlatlar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga intilib, o‘z fuqarolariga xavfsiz xizmat ko‘rsatish uchun raqamli infratuzilmani qurmoqda va raqamli ko‘nikmalarni shakllantirmoqda.


Xulosa

Xorijiy davlatlarning raqamli tizimlarni ishlab chiqish tajribasini kuzatgan xolda har bir davlatning raqamli tizimlarga o‘ziga xos yondashuvi va yo‘nalishi mavjudligini ko‘rish mumkin. Tahlil qilingan xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston iqtisodiyotni raqamlashtirishni eng avvalo ta‘lim tizimidan boshlash o‘rinlidir. Yoshlarning innovatsion g‘oyalari, yangi biznes g‘oyalari yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish va ushbu sohadagi startaplarni yaratish zarur. Bu chora tadbirlar bevosita malakali mutaxassislar migratsiyasini oldini oladi. Bundan tashqari davlat organlarining, tijorat va notijorat tashkilotlar va jamoatchilikning ushbu sohada o‘zaro hamkorligini ta‘minlash kerak. Hozirgi kunda mamlakatimizda xorijiy tajribaga tayangan xolda «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta‘minlash bo‘yicha xalq ta‘limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘z navbatida dunyo mamlakatlari kabi O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanayotganini anglatadi.



References:

1. Б.Махкамов. Рақамли иқтисодиёт – тараққиёт драйвери // Халқ сўзи газетаси, 27.04.2022 йил, № 576-сон.
2. Ria.ru (2017). Digital Economy: How Special Are Failed to End [Electronic Resource]. <https://ria.ru/science/20170616/1496663946.html>
3. Д.Жўраева. Рақамлаштириш – ривожланишнинг муҳим омили // Адолат социал демократик партияси. <https://adolat.uz/news/raqamlashtirish-rivozhlanishning-muhim-omili>
4. П.З. Хашимов, З.Ф.Фахриддинова. Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш истиқболлари // Иқтисод ва молия журнали. 2020 йил 3 (135) сон. 157-164 бетлар.
5. Кастельс М. (2004). Галактика Интернет: Размышления об Интернете, бизнесе и обществе.
6. Панышин Б. (2016). Цифровая экономика: особенности и тенденции развития // Наука и инновации. Т. 3. № 157. С. 17 — 20.
7. Кунцман, А. А. (2016). Трансформация внутренней и внешней среды бизнеса в условиях цифровой экономики / А. А. Куцман // УЭКС. №11 (93). <https://cyberleninka.ru/article/n/transformatsiyavnutrenney-i-vneshneysredy-biznesa-v-usloviyah-tsifrovoy-ekonomiki>
8. Lex.uz online (2019). Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.03.2019 йилдаги “Халқаро рейтинг ва индексларда Ўзбекистон Республикасининг ўрнини яхшилашга оид чора-тадбирларни тизимлаштириш тўғрисида”ги Фармони, ПФ-5687-сон.
9. Lex.uz online (2018). Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21.09.2018 йилдаги “2019 — 2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони, ПФ-5544-сон.
10. Lex.uz online (2018). Ўзбекистон Республикаси Президентининг 19.02.2018 йилдаги “Ахборот технологиялари ва Коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони, ПФ-5349-сон.
11. Information Policy We, (2017). Digital Economy and Society Index (DESI) 2017 <http://www.infopolicy.biz/?p=9322>
12. Knoema.ru (2018). Intranet <https://knoema.ru/atlas/%d0%af>
13. European Commission, (2019). The Digital Economy and Society Index (DESI), (2019). <https://ec.europa.eu/digital-single-market/en/desi>
14. <https://revista.religacion.com/index.php/religacion/article/view/30>.
15. Abdusoliyev, A. I., Kushakova, M. N. (2021). Temir yo‘l transportini rivojlantirishning moliyaviy siyosatining tahlili va tamoyillari. Экономика и социум, 9(88), 893-896.
16. Abdusoliyev, A. I., Kushakova, M. N. (2021). Moliyaviy menejment tizimini rivojlantirish tamoyillari. Oriental renaissance Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 972-977.
17. Razzoqova, J. R., Qaxorov, M. X., Kushakova, M. N. (2021). Temir yo‘l transportining moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish. Oriental renaissance Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 978-986.



18. Kushakova, M. N. (2020). Main directions of credit policy during the COVID-19 PANDEMY. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 1836-1839.
19. Kushakova, M. N. (2020). Financial planning problems in enterprises. *EPR International Journal of Economic Growth and Environmental Issues*, 8(5), 20-21.
20. Dzhumanova, A. B., Kushakova, M. N., Khodzhaeva, N. A. (2019). Formation of accounting management information in the control system of enterprises of JSC «Uzbekistan Railways. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 28(14), 32-36.
21. Кушакова, М. Н. (2022). Анализ и методология управления обслуживающего персонала железнодорожного транспорта в республике. *Экономика и социум*, 1(92), 593-596.
22. Salimov, I. I., Kushakova, M. N. (2022). Analysis of the Problems of Innovative Development of the National Economy and Financial Stability of the Republic of Uzbekistan. *International Journal of Innovative Research in Science Engineering and Technology*, 11(2), 1603-1605.
23. Kushakova, M. N. (2022). Increasing the Efficiency of Logistics Management in Railway Transport. *ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(2), 342-346.
24. Narimanovna, K. M., & Ikromovich, S. I. (2022). Improving the financial management system of rail transport. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(5), 646-653.